

**PEDAGOGIKA ILMIDA TANQIDIY FIKRLOVCHI INSONNING
BIR QATOR FUNKSIYALARI HAQIDA**

Saburov D.B.

Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

saburovdavronbek@mail.ru

Annotatsiya. Tanqidiy fikrlash insonda muammolarni aniqlash, har qanday manbadan olingan ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish, ularga baho berish, muqobillarni ilgari surish, muammoni hal qilish usullarini tanlash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu ishonch va harakatni boshqaruvchi kuzatish, tajriba, fikrlash, o'rganish yoki uyushma orqali to'plangan yoki hosil qilingan ma'lumotlarni konsepsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintezlash va baholashning intellektual va tartibli jarayonidir. Maqolada shu masalalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: funksiya, tanqidiy fikrlash, muammoni yechish, faollik, intizomlilik, ishonch, tahlil, sintezlash.

Аннотация. Критическое мышление предполагает развитие у человека способности выявлять проблемы, анализировать и синтезировать информацию из любого источника, оценивать их, выдвигать альтернативы, выбирать методы решения проблемы. Это интеллектуальный и упорядоченный процесс концептуализации, применения, анализа, синтеза и оценки данных, собранных или генерируемых посредством наблюдения, опыта, мышления, обучения или ассоциации, которые управляют доверием и действием. В статье обсуждаются эти вопросы.

Ключевые слова: функция, критическое мышление, решение проблем, активность, дисциплинированность, доверие, анализ, синтез.

Abstract. Critical thinking involves developing in a person the ability to identify problems, analyze and synthesize information from any source, evaluate them, propose alternatives, and choose methods for solving problems. It is an intellectual and ordered process of conceptualizing, applying, analyzing,

synthesizing, and evaluating data collected or generated through observation, experience, thinking, learning, or associations that govern trust and action. The article discusses these issues.

Keywords: *function, critical thinking, problem-solving, activity, discipline, trust, analysis, synthesis.*

XXI asr psixologiya, pedagogika, neyropsixologiya sohasidagi ko'plab mutaxassislar tomonidan yuqori sur'atlar, intellektual boylik va ishga joylashish, shuning natijasida ta'lim sohasidagi mutlaqo yangi reallik asri sifatida tavsiflanadi. Ta'limning nazariy asosi ikkinchi darajaga chiqadi, birinchi darajada esa olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash zarurati yanada kuchliroq bo'lishini tafakkurning o'zgaruvchanligi, vaziyatga tez moslashish ko'nikmalari, tahlil va refleksiya bilan birgalikda kuzatamiz. Axborot bugungi kunda tez tarqalishi, sonining ko'payishi va uni muntazam ravishda tekshirib borish zarurati bilan ajralib turadi, bu esa insonning bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shundan kelib chiqib, zamonaviy ta'limda o'quvchilarning kognitiv qobiliyatini rivojlantirish, unga ega bo'lish orqali inson o'zini o'rab turgan olam voqeliklari va axborotga boy muhitga tezroq moslashishi birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Bundan kelib chiqib, har qanday faoliyat tashqi va ichki jarayonlardan foydalanadi, ta'lim berishda, ayniqsa, hozirgi vaqtda bilim olish motivatsiyasi ancha past bo'lgan o'smirlarni o'qitishda ular bilan nafaqat o'quv materialini yodlash mashqlarini bajarish, balki ularning ruhiy va psixologik qobiliyatlarini rivojlantirish ustida ham ishlash zarur, degan xulosaga kelish mumkin.

V.D.Shadrikov tafakkurning ko'p vazifali ekanligini, u tushunishni boshlab berishini, paydo bo'lgan muammolarni yechishga yordam berishini, maqsad qo'yish bilan ishlashini, refleksiyani keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Tafakkur - yuz berayotgan ichki jarayonlar, paydo bo'lgan harakat motivlari asosida vujudga kelgan hosiladir [1].

I.O.Zagashev, I.A.Mushtovinskaya, S.I.Zair-Bekler o'quv faoliyatini amalga oshirishda ham ishtirok etadi, shuning uchun maktab o'quvchilarini

o'qitishda uning rivojlanishiga (ayniqsa, tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga) e'tibor berish juda muhim, deb ta'kidlaydi [2].

A.N.Leontev tafakkurning tabiatini o'rganib, uning amaliy faoliyat bilan bog'liqligini bir necha bor ko'rsatib o'tgan, chunki tafakkur doimo motivlar bilan belgilanadi va harakatlar, operatsiyalar yordamida amalga oshiriladi (operatsiyalar deganda u sintez, analiz, umumlashtirish va boshqalarni tushunadi) [3]. Shuningdek, psixolog tafakkur motivlari ko'pincha tafakkur ishtirok etayotgan faoliyat motivlari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tgan. Bilish, yangi bir narsani bilishga intilish kabi tafakkur faoliyatining o'ziga xos motivlari ham bor.

Tahlil bir qator xususiyatlarga ham ega: bog'liqlik xarakteri va umumlashtirilganlik. Inson har doim ham o'zini o'rab turgan olamni bevosita bilavermaydi, ba'zan buning uchun o'zida mavjud bo'lgan tajribadan foydalanadi va shu tajriba orqali hissiyoti va nazariy bilimlaridan foydalanib biladi. Bundan tashqari, barcha narsalarning bir-biri bilan bog'liqligini tan olib, tajribani umumlashtiramiz va tafakkurni shakllantiramiz.

D.Xalpern tafakkurga bilimning tuzilishi sifatida qaraydi [4]. U tafakkurni bizga qadar boshqalar egallagan tajriba nuqtayi nazaridan tushuntiradi, uni o'rganib, biz faqat yangi bilimlar zanjirini shakllantiramiz. Biz bunday tuzilmalarni mavjud bilimlarni yangi olingan bilimlar bilan bog'lash uchun tuzamiz, shuning uchun har bir bilim, D.Xalpern ta'kidlaganidek, o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi va uning ortida shaxs turadi.

Tanqidiy fikrlashning fikrlash haqidagi ta'limotning umumiy tizimidagi o'rnini tushunish maqsadida fikrlashning tasnifiga nazar tashlaylik. L.S.Vigotskiy ta'sir turiga qarab fikrlashning uch turini: ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-tasviriy va so'z-mantiqiy turlarga ajratadi [5].

A.V.Brushlinskiy tafakkur faoliyati mahsulotining yangilik darajasiga tayanib, produktiv va reproduktiv tafakkurni farqlab ko'rsatadi. O.K.Tixomirov fikrlash faoliyatining o'tish xarakterini hisobga oladi va analitik va intuitiv fikrlashni belgilaydi. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz fikrlashni ixtiyoriylik darajasi bo'yicha

S.L.Rubinshteyn [6], B.M.Teplov yechiladigan masalalar tipini asos qilib oladi va amaliy fikrlashni ajratib ko'rsatadi [7].

G.Lindsey, K.S.Xall va R.F.Tompsonlar ijodidagina ijodiy va tanqidiy fikrlash turlarini uchratamiz. Tafakkur masalalari bilan shug'ullangan va uning bir turi sifatida tanqidiy tafakkurni ajratib ko'rsatgan olimlardan P.B. Gurevichning tafakkurni mantiqiy, ijodiy va tanqidiy turlarga ajratib, ularni inson intellektual qobiliyatlarining yuksak darajasi deb ataganligini ta'kidlash mumkin [8]. Bunda mantiqiy fikrlash qoidalar ustida va turli fikrlash operatsiyalarini, masalan, sintez, tahlilni o'z ichiga oladi; ijodiy fikrlash yangi mahsulot yoki fikrni yuzaga keltirib, ijodiy taxminlar ustida harakatlanadi; tanqidiy fikrlash esa fikrlashning eng yuqori darajasi bo'lib, haqiqiy va yolg'onni ajratib olish, fikrlarda ularni ajratib olish va ularga javob bera olish, natijada, olingan ma'lumotni tahlil qilish, baholash, isbotlash yoki rad etish uchun imkoniyat beradi [9].

Biz aniqlaganimizdek, tanqidiy fikrlash - bu bizga olingan ma'lumotni baholash imkonini beradigan fikrlash turidir. Bu, ayniqsa, XXI asrda, axborotning ma'lum darajada ko'pligini kuzatib turgan va turli axborot manbalarini ularning muhimligi, foydaliligi, ishonchliligi nuqtayi nazaridan baholay olishimiz, bundan tashqari, nimaga ishonish va nimaga ishonmaslikni tanlashimiz zarur bo'lgan davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilarning barchasini o'quvchilarning ko'nikmalarida shakllantirish, ayniqsa, psixologiyasi hali juda beqaror va kattalarga qaraganda tashqi ta'sirlarga ko'proq moslashgan o'smirlarda juda muhimdir.

Tanqidiy fikrlash o'zida metabilim ("bilim haqida bilim"), ma'lumot manbalarini mantiqiy baholash, yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda mos strategiyalarni tanlashni birlashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darslarida tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish nuqtai nazaridan, bu fikrlarning umumiy xulosasi shundan iborat: tanqidiy fikrlash bolalikdan ona tili va o'qish darslarida matnlarni chuqur tahlil qilish (masalan, muallif fikrini baholash, yashirin ma'nolarni aniqlash), guruhli muhokamalar (muqobillarni tahlil qilish va kelishilgan yechimlarni topish), refleksiv vazifalar (o'z fikrlarini asoslash va

xatolarni tuzatish) va muammoga yo‘naltirilgan usullar (natijalarni bashorat qilish va optimal yechimni tanlash) orqali rivojlantirilishi mumkin. Mazkur tadqiqotchilarning birgalikdagi ishtiroki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini passiv ta’lim olishdan chiqib, erkin, ratsional va faol fikrlovchilar sifatida tarbiyalashning mustahkam ilmiy asosini ta’minlaydi, natijada ularning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Shadrikov V.D. O‘qitishda bilish jarayonlari va qobiliyatlar. - Moskva: Prosvesheniye. 1990. -B.55-58.
2. Zair-Bek S.I. Razvitiye kriticheskogo mishleniya na uroke: posobiye dlya uchiteley obsheobrazovatelnix uchrejdeniy / S.I. Zair-Bek, I.V.Mushtavinskaya. - 2-nashr, dorab. - Moskva: Prosvesheniye, 2011. - B. 36.
3. Leontev A.A. Psixologiya obsheniya. - Moskva: Smisl, 2008. - B. 40-48.
4. Halpern D. Psixologiya kriticheskogo myshleniya. - Sankt-Peterburg: Izd-vo "Piter," 2000. - B. 19-25.
5. Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. - Moskva: AST, 2011. - B. 45-48.
6. Rubinshteyn S.L. O myshlenii i putyax yego issledovaniya. - Moskva. 1958. - B.50-54.
7. Teplov B.M. Umumiy psixologiya bo‘yicha xrestomatiya: Amaliy tafakkur. - Moskva, 1998. -B.79-83.
- Gurevich P.B. K voprosu o spetsifike metodiki prepodavaniya inostrannykh yazykov kak nauki // Inostrannye yazyki v shkole. - 2013. - No4. - B.3-10.
9. Lindsey G. Ijodiy va tanqidiy fikrlash / G.Lindsey, R.F.Tompson, K.S.Xall // Psixologiya bo‘yicha xrestomatiya: tafakkur psixologiyasi / tuz. Yu.B. Gippenreyter. - Moskva: AST, 2008. - B. 111-114.